



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

11 (49) 2022



Received: 10.10.2022
Accepted: 21.10.2022
Published: 10.11.2022

UDK 618.11-008.64. 578.834.1

COVID-19 BILAN KASALLANGAN AYOLLARDA XAYZ SIKLI BUZILISHLARINI DAVOLASHDA YANGICHA YONDASHUV

Yuldasheva N.Z., F.I. Shukurov., Nigmatova G.M.

Toshkent tibbiyot akademiyasi, O'zbekiston

✓ Rezyume

Maqsad COVID-19 bilan kasallangan ayollarda hayz davrining buzilishini davolashda inositol va 100 mkg foliy kislotasi biyologik faol qo'shimchalar samaradorligini baholaydi.

Materiallar va uslublar. Tadqiqotda COVID-9 tufayli hayz ko'rish funksiyasi buzilgan 18 yoshdan 36 yoshgacha bo'lgan 60 nafar ayol ishtirok etdi. Ulardan 20 nafari oligomenoreya bilan, 20 nafari esa opsomenoreya bilan kasallangan. Bemorlarda hayz davrining buzilishi 33,3% ayollarda oligomenoreya va 33,3% opsomenoreya bilan tavsiflangan. Hayz ko'rish buzilishini tuzatish uchun biz birinchi navbatda inositol va 100 mkg foliy kislotasi biyologik faol qo'shimchalardan foydalandik. Barcha bemorlar keng qamrovli klinik, laboratoriya va instrumental tekshiruvdan o'tkazildi.

Natija: 1000 mg inositol va 100 mkg foliy kislotasini o'z ichiga olgan biologic faol qo'shimchasini qo'llash bilan 3 oylik tuzatuvchi terapiyadan so'ng bemorlarning 84,5 foizida hayz ko'rish davri normal holatga qaytdi, follikulogenezning ijobiy dinamikasi va qon plazmasidagi gormonlar darajasi. qayd etdi. Ovulyatsiya ayollarning 85 foizida qayd etilgan.

Xulosa. COVID-19 fonida ayollarda hayz davrining buzilishini davolashda 1000 mg inositol va 100 mkg foliy kislotasi biyologik faol qo'shimchalardan foydalanish hayot sifatini 2,4 baravar yaxshilaydi va hayz davrining normallasishiga olib keladi. 84,5%, ovulyatsiya - 85% ayollarda.

Kalit so'zlar: hayz sikli, oligomenoreya, opsomenoreya, xun takviyeleri, inositol va foliy kislotasi.

НОВЫЙ ПОДХОД К ЛЕЧЕНИЮ НАРУШЕНИЙ МЕНСТРУАЛЬНОГО ЦИКЛА У ЖЕНЩИН С COVID-19

Юлдашева Н.З., Шукуров Ф.И., Нигматова Г.М.

Ташкентская медицинская академия, Узбекистан

✓ Резюме

Цел. Оценит эффективность применения биологически активной добавки инозитола и 100 мкг фолиевой кислоты в лечении нарушений менструального цикла у женщин с COVID-19.

Материалы и методы. В исследование были включены 60 женщин в возрасте от 18 до 36 лет с нарушением менструальной функции вследствие COVID-9. Из них 20 женщин были с олигоменореей и 20-с опсоменореей. Нарушение менструальной функции у пациенток характеризовалас олигоменореей у 33,3% и опсоменореей у 33,3% женщин. Для коррекции нарушений менструального цикла мы впервые использовали биологически активная добавка, содержащая 1000 мг инозитола и 100 мкг фолиевой кислоты. Всем болным проведено комплексное клиничко-лабораторное и инструментальное исследование.

Результат: Через 3 мес корригирующей терапии с применением биологически активная добавка, содержащая 1000 мг инозитола и 100 мкг фолиевой кислоты у 84,5% пациенток нормализовался менструальный цикл, отмечена положительная динамика фолликулогенеза и уровня гормонов в плазме крови. Овуляция зарегистрирована у 85% женщин.

Заключение. Применение биологически активная добавка, содержащая 1000 мг инозитола и 100 мкг фолиевой кислоты при лечении нарушений менструального цикла у

женицин на фоне COVID-19 улучшает качество жизни в 2,4 раза и приводит к нормализации менструального цикла у 84,5%, овуляции – у 85% женщин.

Ключевые слова: менструальный цикл, олигоменорея, опсоменорея, биологически активные добавки, инозитола и фолиевой кислоты.

A NEW APPROACH IN THE TREATMENT OF MENSTRUAL CYCLE DISTURBANCES IN WOMEN WITH COVID-19

N.Z. Yuldasheva., F.I. Shukurov, G.M. Nigmatova

Tashkent Medical Academy, Uzbekistan

✓ *Resume*

Purpose Will evaluate the efficacy of inositol and 100 mcg folic acid dietary supplement in the treatment of menstrual irregularities in women with COVID-19.

Materials and methods. The study included 60 women aged 18 to 36 years with menstrual dysfunction due to COVID-9. Of these, 20 women were with oligomenorrhea and 20 with opsomenorrhea. Menstrual dysfunction in patients was characterized by oligomenorrhea in 33.3% and opsomenorrhea in 33.3% of women. For the correction of menstrual disorders, we first used a dietary supplement containing 1000 mg of inositol and 100 micrograms of folic acid. All patients underwent a comprehensive clinical, laboratory and instrumental study.

Result: After 3 months of corrective therapy with the use of a dietary supplement containing 1000 mg of inositol and 100 µg of folic acid, the menstrual cycle returned to normal in 84.5% of patients, positive dynamics of folliculogenesis and hormone levels in blood plasma were noted. Ovulation was registered in 85% of women.

Conclusion. The use of a dietary supplement containing 1000 mg of inositol and 100 µg of folic acid in the treatment of menstrual disorders in women against the background of COVID-19 improves the quality of life by 2.4 times and leads to the normalization of the menstrual cycle in 84.5%, ovulation - in 85 % of women.

Key words: menstrual cycle, oligomenorrhea, opsomenorrhea, dietary supplements, inositol and folic acid.

Dolzarbligi

Bugungi kunga kelib, dalillar COVID-19 infeksiyasining ayollar reproduktiv tizimiga potentsial ta'siri mavjudligini tasdiqlaydi [1,2]. Bu ta'sir tug'ish yoshidagi ayollarda bepustlik va xayz siklining turli buzilishlari bilan namoyon bo'lmoqda [3,4]. Biroq, COVID-19ning reproduktiv yoshdagi ayollarda hayz va tuxumdon funksiyasiga ta'sirira oid ma'lumotlarni kamligi mazkur muammoni o'rganishga qaratilgan qo'shimcha izlanishlarni o'tkazishni talab qiladi [5,6]. Bugungi kunga qadar reproduktiv yoshdagi ayollarda koronavirus infeksiyasining hayz sikli va tuxumdonlar faoliyatiga ta'siri haqida kam ma'lumot to'plangan [7,8]. So'nggi olingan ma'lumotlarga ko'ra, jahon adabiyotida reproduktiv yoshdagi ayollarda koronavirus infeksiyasi sabab buzilgan hayz-tuxumdon funksiyasini tashxislash, davolash va profliktikasiga oid samarali usullari mavjudligi haqida etarlicha ma'lumotlar yo'q [9,10].

Bu o'z navbatida, COVID-19 bilan kasallangan ayollarda hayz faoliyati buzilishlarini tashxislash, davolash hamda oldini olishga oid samarali davolash usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etishni talab qiladi.

Tadqiqotning maqsadi 1000 mg inositol va 100 mkg foliy kislotasi biyologik faol qo'shimchasining COVID-19 bilan kasallangan reproduktiv yoshdagi ayollarda, hayz sikli buzilishlarini davolashda samaradorligini baholashdan iborat bo'ldi.

Materiallar va tadqiqot usullari

Tadqiqotga COVID-19 fonida hayz ko'rishi buzilishi bo'lgan 18-36 yoshdagi 60 nafar ayollar ishtirok etdi. Ulardan 20 nafarini oligomenoreya (1-asosiy gurux), 20 nafarini esa, opsomenoreya (2-asosiy gurux) aniqlangan ayollar tashkil qildi. Taqqoslash guruhini 1000 mg inositol va 100 mkg foliy kislotasi biyologik faol qo'shimchalarini qabul qilishdan bosh tortgan 20 nafar ayol tashkil etdi. Barcha

bemorlar, o'tkazilayotgan tadqiqotlar kiritish mezonlariga mos kelishdi va kiritmaslik mezonlari bilan bog'liq hech qanday kasalliklar aniqlanmadi. Tadqiqotga kiritish mezonlariga: yoshi 18-36 yoshli, erta va kechki reproduktiv yoshdagi COVID-19 fonida xayz kelish faoliyati buzilgan ayollar hamda tadqiqotda qatnashishga yozma rozilik xatini taqdim etgan ayollar kiritildi.

Tadqiqotga kiritmaslik mezonlarga esa, anamnezida onkologik kasalliklari, OITS, gepatit V va S infeksiyalari mavjud, yurak qon tomir va nafas etishmovchiligi, jigar va buyrak funksiyasining buzilishlari aniqlangan, shuningdek ruxiy va metabolik buzilishlar mavjud hamda anamnezida allergik reaksiyalarga moyilligi mavjud ayollar tashkil etdi.

Tadqiqotda klinik, immunologik, gormonal, ultratovush va statistik tadqiqot usullaridan foydalanildi. Gormonlar miqdorini ayollarga 1000 mg inositol va 100 mkg foliy kislotasi biyologik faol qo'shimchasini qo'llashdan oldin va 3 oy keyin MINDRAY MR-96A immunoanalizatori yordamida "Boehringer Mannheim" (AQSh), «Beckman coulter» (AQSh), «DRG Diagnostics» (Germaniya) va Shveysariya "Hoffman La Roch" firmalari tomonidan ishlab chiqarilgan standart reaktivlardan foydalanilgan holda immunoferment usuli yordamida o'tkazildi.

Chanoq a'zolarining ultratovush tekshiruvu SAMSUNG (Koreya) apparatida mos ravishda 3,5-4,5 va 6-7 MGts chastotali transabdominal va transvaginal datchiklar yordamida amalga oshirildi.

Ushbu tadqiqotda biz ilk bor, COVID-19 fonida rivojlangan xayz sikli buzilishlarini davolash uchun asosiy guruhning barcha ayollariga 1000 mg inositol va 100 mkg foliy kislotasini o'zida saqllovchi biologik faol qo'shimchasi buyurildi. Bemorlar biologik faol qo'shimchasi quyidagi tarzda qabul qilishdi: 1 paketcha biologik faol qo'shimchasi 200 ml suvda eritilib, kuniga 1 mahaldan ovqat paytida 3 oy davomida qabul qilishdi. Biologik faol qo'shimchasining samaradorligi 3 oylik qabul qilinganidan keyin quyidagi ko'rsatkichlar natijalari bo'yicha baholandi: hayz davrining klinik xususiyatlarining o'zgarishi, gormonlar darajasining me'yorlashuvi, ultratovush ma'lumotlariga ko'ra va follikulogenez jarayoni mo'tadillashganligini baholash orqali amalga oshirildi.

Olingan natijalarni statistik qayta ishlash Statistica for Windows 7.0 dasturi yordamida amalga oshirildi. Ma'lumotlar $M \pm m$ sifatida taqdim etiladi. $p < 0,05$ ga to'g'ri keladigan farqlar statistik ahamiyatga ega deb hisoblandi.

Natijalar va tahlillar

Tadqiqotga kiritilgan ayollarning o'rtacha yoshi $21,3 \pm 3,46$ yoshni tashkil etdi. Birinchi xayz (menarhe) ko'rishning o'rtacha yoshi guruhlarda mos ravishda 13 va 14 yoshni tashkil etdi. Tadqiqotda ishtirok etayotgan bemorlarda jiddiy somatik kasalliklari aniqlanmadi. Tadqiqotda ishtirok etayotgan ayollarning 20 nafar (33,3%)da oligomenoreya, 20(33,3%) ayollarda esa opsomenoreya aniqlangan. Hayz ko'rish ritmining buzilishi 40 kundan ortiq interval bilan hayz ko'rishni, oligomenoreya deb tasniflanadi; opsomenoreya deb esa, - 35 kundan ortiq interval bilan hayzli qon ketishi deya tavsiflandi.

Tadqiqotga kiritilgan bemorlarda biologik faol qo'shimchasi bilan davolashdan oldin va keyin gormonal tadqiqoti o'tkazildi. Tadqiqotga kiritilgan ayollarda gormonal holatini tahlili, LGning yuqori miqdori I-guruhda $10,4 \pm 0,24$ ME/l aniqlanib, II -guruhda esa uning miqdori past ya'ni $9,7 \pm 0,14$ ME/l ni tashkil etdi. FSGning miqdori ikkala guruxdayam past, guruxlarda mos ravishda $3,4 \pm 0,12$ ME/l va $4,2 \pm 0,12$ ME/l miqdorda aniqlandi. Testosteronning o'rtacha darajasi ikkala guruh bemorlarida ham mos ravishda $1,8 \pm 0,14$ ng/ml va $1,9 \pm 0,02$ ng/ml dan sezilarli darajada yuqori miqdorda ekanligi, estradiol (E2) miqdori har ikkala gurux ayollarida ham, taqqoslash guruhidagi ko'rsatkichlarga - $108,0 \pm 0,14$ pg/ml nisbatan sezilarli darajada past miqdorda ekanligi ya'ni: I-guruhda $98,2 \pm 0,12$ pg/ml va II-guruxda $97,4 \pm 0,23$ pg/ml ko'rsatdi ($p < 0,001$). Shu bilan birga prolaktin gormonining o'rtacha darajasi taqqoslash guruhi ko'rsatkichlariga - $69,2 \pm 1,83$ mMED/l nisbatan ancha baland, guruxlarda mos ravishda $34,6 \pm 0,24$ mMED/l va $32,4 \pm 0,21$ mMED/l tashkil etdi ($p < 0,001$). Xayz siklining ikkinchi yarmida, progesteron gormoni miqdorining past darajada ekanligi aniqlandi, guruxlarda mos ravishda $1,1 \pm 0,14$ ng/ml va $1,1 \pm 0,22$ ng/ml ni tashkil etib, bu holat, COVID-19 bilan kasallangan ayollarda ovulyatsiya sodir bo'lmayotganligi va sariq tana hosil bo'lmayotganligidan dalolat beradi ($p < 0,05$) (Jadvalga qara)

Tadqiqotga kiritilgan ayollarda Biologik faol qo‘shimchasi bilan davolashdan oldin va keyingi gormonal holati ko‘rsatkichlari, M±m


Gormonlar	I-gurux (n=20)		II-gurux (n=20)		Taqqoslash guruxi (n=20)
	Davolash gacha	Davolash dan keyin	Davolash gacha	Davolash dan keyin	
FSG(ME/l)	3,4±0,12	11,4±0,16***	4,2±0,12	10,8±0,12****	11,1±0,51
LG(ME/l)	10,4±0,24	8,8±0,22***^	9,7±0,14	10,2±0,14****^	7,2±0,35
E ₂ (pg/ml)	98,2±0,12	122,0±0,07	97,4±0,23	120,6±0,11***^	108,0±0,14
Progesteron (ng/ml)	1,1±0,14	2,4±0,14	1,1±0,22	2,6±0,12	1,7±1,39
Prolaktin (mMED/l)	34,6±0,24	32,2±0,16****^	32,4±0,21	30,2±0,14***^	69,2±1,83
T (ng/ml)	1,8±0,14	0,9±0,02****^	1,9±0,02	0,8±0,04***^	1,6±0,12

Izox: *-davolashdan oldingi guruh ko‘rsatkichlariga nisbatan farqlar sezilarli (* – P<0,05, ** – P<0,01, *** – P<0,001)

^ – taqqoslash gurux ko‘rsatkichlariga nisbatan farqlar sezilarli (^ – P<0,05, ^^ – P<0,01, ^^ – P<0,001)

Tadqiqotga kiritilgan bemorlarda Biologik faol qo‘shimchasi bilan 3 oy davolashdan keyingi bemorlarda gormonal tadqiqot natijalari, I–guruhdagi bemorlarda LGning 8,8±0,22 ME/l.gacha pasayganligini va II-guruhda 10,2±0,14 ME/l.gacha ortganligini guvohi bo‘ldik (p<0,001), ikkala guruhda ham testosteron miqdori guruxlarda mos ravishda 0,9±0,02 ng/ml va 0,8±0,04ng/ml tashkil etib bu, taqqoslash guruxidagi bemorlar ko‘rsatkichi 1,6±0,12 ng/ml.ga nisbatan pasayganligini ko‘rsatdi (p<0,001), FSG miqdori I–guruhda 11,4±0,16 ME/l gacha ortishi, II–guruhda esa, 10,8±0,12 ME/l.gacha ortishi, E2 gormoni miqdorining guruxlarda mos ravishda 122,0±0,07pg/ml va 120,6±0,11pg/ml.gacha ortganligini, prolaktin miqdorining esa, ikkala guruxda ham birmuncha pasayishi kuzatildi, guruxlarda mos ravishda 32,2±0,16 nmol/l va 30,2±0,14 nmol/l miqdorda aniqlandi (p>0,05). Biologik faol qo‘shimchasini ayollarda qo‘llash natijalarini tahlili bemorlarda hayot sifatining 2,4 baravarga yaxshilanishi va 85%da hayz siklining buzilishi alomatlarini bartaraf etilganligini ko‘rsatdi.

Xayz sikli xususiyatlarining yaxshilanishi (40 dan 30 kungacha xayzlararo intervallarning qisqarishi, (p<0,001) ayollarning 84,5% da kuzatilgan, ovulyatsiya jarayoni ayollarning 85% da qayd etilgan (rasmga qara).



Rasm. Tadqiqotga kiritilgan ayollarda Biologik faol qo‘shimchasini qo‘llash samaradorligi,%

Shuningdek, follikulogenez jarayonining ijobiy dinamikasi 85% ayollarda ovulyatsiya sodir bo‘lib sariq tana hosil bo‘lganligini, M-echo qiymatida ijobiy dinamika qayd etilgan.

Biz tomondan olingan ma‘lumotlar 1000 mg inositol va 100 mkg foliy kislotasi biyologik faol qo‘shimchalarining COVID-19 sababli kelib chiqqan xayz buzilishlari mavjud ayollarda hayz sikli ritmini tiklashdagi samaradorligi haqida gapirishga asos bo‘la oladi. Xayz siklini me‘yorlashganligiga asos follikulogenez jarayonining tiklanib ovulyatsiya sodir bo‘lishi va endometriyning o‘shishini tiklanganligi hisoblanadi.

Natijada, 1000 mg inositol va 100 mkg foliy kislotasi biyologik faol qo‘shimchasini qo‘llagan

ayollarning hayot sifati 2,4 barobar ortadi va hayz ko'rish funksiyasi 85%ga meyorlashadi.

Xulosa. COVID-19 fonida hayz sikli buzilishlari mavjud ayollarda 1000 mg inositol va 100 mkg foliy kislotasi biologik qo'shimchasidan foydalanish, ayollarning 84,5%da hayz siklining me'yorlashshuviga, 85% ayollarda ovulyatsiya jarayonining tiklanishiga va hayot sifatini 2,4 baravarga ortishiga olib keldi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Адамян Л.В., Азнаурова Я.Б., Филиппов О.С. COVID-19 и женское здоровье (обзор литературы) // Проблемы репродукции. 2020.Т.26, №2. С.6–17.
2. Андрогенная алопеция и коронавирусная инфекция / О.О. Мелниченко, Л.Р. Сакания, А.Л. Пирузян, И.М. Корсунская // Consilium medicum. – 2021. – Т. 23, № 8. – С. 617-620.
3. Бавыкин А.С. Клеточный и молекулярный уровень стратегии COVID-19 по индукции иммунодефицита. Возможные терапевтические решения / А. С. Бавыкин // Журнал микробиологии, эпидемиологии и иммунобиологии. – 2021. - № 4. – С. 450-467.
4. Временное клиническое руководство по ведению COVID-19 при беременности, родах и послеродовом периоде // Ташкент-2020г. С.-31.
5. Шукуров Ф.И., Аюпова Ф.М. Новое в восстановлении фертильности у женщин после эндохирургического лечения синдрома поликистозных яичников // Биология ва тиббиёт муаммолари, 2018, 4,1 (105) 175-176.
6. David S. Hui. Yepidemic and Yemerging Coronaviruses (Severe Acute Respiratory Syndrome and Middle Yeast Respiratory Syndrome) // Clin. Chest. Med. – 2017. – Vol. 38. – №1. – P. 71–86.
7. Cai Q., Huang D., Ou P., Yu H., Zhu Zh., Xia Zh., Su Y., Ma Zh., Zhang .Y., Li Zh., He Q., Liu L., Fu Y., Chen J. COVID-19 in a designated infectious diseases hospital outside Hubei Province, China. MedRxiv. 2020.
8. Chan J.F., Kok K.H., Zhu Z., Chu H., To K.K., Yuan S., Yuen K. Genomic characterization of the 2019 novel human-pathogenic coronavirus isolated from a patient with atypical pneumonia after visiting Wuhan / Yemerg. Mi Yu C., Liu Q., Deyin G. Yemerging coronaviruses: genome structure, replication, and pathogenesis // J. Med. Virol. – 2020. – Vol. 92. – №4. – P. 418–423.
9. S'hen Ch., Wang Zh., Zhao F., Yang Y., Li J., Yuan J., Wang F., Li D., Yang M., Xing L., Wei J., Xiao H., Yang Y., Qu J., Qing L., Chen L., Xu Zh., Peng L., Li Y., Zheng H., Chen F., Huang K., Jiang Y., Liu D., Zhang Zh., Liu Y., Liu L. Treatment of 5 critically ill patients with COVID-19 with convalescent plasma. // JAMA. 2020; 323 (16): 1582-1589.
10. Zha L., Li S'h., Pan L., Tefsen B., Li Y., French N., Chen L., Yang G., Villanueva Ye.V. Corticosteroid treatment of patients with coronavirus disease 2019 (COVID- 19). // Medical Journal of Australia. 2020; 212 (9): 416-420.

Qabul qilingan sana 10.10.2022

<i>Yuldashev S.Zh., Ibragimova D.N., Shukurova D.B.</i> CORRECTION OF SLEEP DISTURBANCES IN PARKINSON'S DISEASE USING CIRCAD RATE REGULATOR THERAPY.....	318
<i>Khalmatova Uneta1 Zuenkova Yuliia</i> EXPERIENCE OF ORGANIZING THE RADIO THERAPEUTIC SERVICE AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	323
<i>Zhumaev A.U., Gafur-Akhunov M.A.</i> RESULTS OF COMPREHENSIVE CANCER TREATMENT MOUTH.....	329
<i>Yusupaliyeva G.A., Abzalova Sh.R., Yuldashev T.A., Sultanova L.R., Abzalova M.Ya.</i> OPTIMIZATION OF MULTIPARAMETER ULTRASOUND DIAGNOSIS AND PREDICTION OF OUTCOMES OF CHRONIC KIDNEY DISEASE.....	336
<i>Gafurova E.O., Xolboeva S.Sh., Shukurov F.I.</i> EVALUATION OF THE EFFICACY OF ADJUVANT THERAPY AFTER LAPAROSCOPIC REMOVAL OF OVARIAN FOLLICULAR CYSTS.....	341
<i>N.Z. Yuldasheva., F.I. Shukurov, G.M. Nigmatova</i> A NEW APPROACH IN THE TREATMENT OF MENSTRUAL CYCLE DISTURBANCES IN WOMEN WITH COVID-19.....	344
<i>Odilova G.R.</i> FEATURES OF MORPHOMETRIC PARAMETERS OF REFRACTIVE PARTS OF THE EYE AND FUNDUS ELEMENTS IN CHILDREN OF THE SECOND PERIOD OF CHILDHOOD WITH DIABETES MELLITUS AND MYOPIA.....	349
<i>S.F. Suleymanov</i> CHARACTERISTICS OF THE IMMUNE STATUS WITH THE SIMULTANEOUS COURSE OF CHRONIC CHOLECYSTITIS AND METABOLIC SYNDROME.....	361
<i>G.S. Babadzhanova, M.D. Abdurazakova, N.S. Razzakova, Sh.I. Ismailova</i> PECULIARITIES OF THE COURSE OF PREGNANCY IN DISEASES OF THE BILARY SYSTEM.....	366
<i>Eronov Yo.K., Mirsalixova F.L.</i> INDICATIONS FOR CYTOLOGICAL EXAMINATION IN THE EARLY DIAGNOSIS OF PERIODONTAL DISEASES IN CHILDREN WITH DISABILITIES.....	371
<i>Akhmedov Alibek Bakhodirovich</i> EVALUATION OF THE EFFICIENCY OF VARIOUS METHODS OF TREATMENT OF PERIODONTITIS IN PERMANENT TEETH WITHOUT ROOT FORMATION.....	279
<i>Safoev B.B., R.R.Arashov, Sh.Sh.Yarikulov,</i> ANALYSIS OF THE RESULTS OF SURGICAL TREATMENT OF PATIENTS WITH LIVER CAVITIES WITH SIMPLE AND COMPLEX INTRAHEPATIC ARRANGEMENTS IN A COMPARATIVE ASPECT.....	385
<i>Eshonov O.Sh.</i> EVALUATION OF THE EFFICACY OF LYMPHOTROPIC THERAPY IN CRITICAL CONDITIONS IN PATIENTS WITH CRANIO-BRAIN INJURY.....	394